



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No6(4)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 310 sahifa,  
12-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Maktab o'quvchilarining musiqiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari .....	10
<i>Abilov Muslim Normuxammadovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati.....	14
<i>Bolqiyev Axmad</i>	
Jamiyat muhitida radikalizmning oldini olishga qaratilgan uzluksiz profilaktika tizimini yaratish .....	17
<i>Axmedova Iroda Shaxitbekovna</i>	
Inklyuziv ta'lim va gospital pedagogikani rivojlantirishda pedagogning tashkilotchilik madaniyati: nazariy va amaliy aspektlar .....	22
<i>Djabborov Ma'sud Bahriddinovich, Arolova Zarina Lochin qizi</i>	
Developing Sociolinguistic Competence in Intensive Teaching of Foreign Languages to Adults .....	28
<i>G. R. Tolibova</i>	
Языковая выразительность и художественный мир сказки "Муха-Цокотуха" .....	31
<i>Garifullina Alsu Robert qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda nasriy asarlarni o'qitish .....	35
<i>Ibodullayeva Madina Muzaffar qizi</i>	
Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutq faoliyatining yuzaga kelish xususiyatlari .....	38
<i>Ibroximova Fotimaxon Qobiljon qizi</i>	
Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarni fuqarolik hayotiga ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasining nazariy-metodologik tahlili (CTP dasturi misolida).....	42
<i>Ikmatullayev G'ayrat Zokirovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv motivatsiyasini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish yo'llari .....	47
<i>Islamova Fotima Shamsiddinovna, Ismoilova Mohinur Faxriddin qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari .....	52
<i>Mamanazar Djumayev</i>	
Turli vazn toifalaridagi dzyudochilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish .....	61
<i>I. B. Matmuratova</i>	
Maktabgacha ta'limda xalqaro monitoring va baholash dasturlarining o'rni .....	65
<i>Mutalova Dilnoza Abdurashidovna</i>	
Raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilarning intellektuallik koeffitsientini rivojlantirish va zamonaviy ko'nikmalarini shakllantirish .....	69
<i>Normamatova Sevinch Asror qizi</i>	
Ona tilidan o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasining rivojlanganlik darajasini aniqlash mezonlari.....	73
<i>Oloqova O'g'iljon Mamanazarovna</i>	
Oliy ta'limda adaptiv raqamli ta'lim texnologiyalari asosida o'quv jarayoni samaradorligini oshirish modeli ...	77
<i>Quchqarova Dilnovoz Shaymaxammad qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini autentik videomateriallar asosida rivojlantirish metodikasi .....	81
<i>Qurbonova Shalola Ilhomiddinovna</i>	
Jadid ma'rifatparvarlari pedagogik merosini tadqiq etishning zamonaviy ijtimoiy-pedagogik ahamiyati .....	84
<i>Raxmatova Dilbar Anvar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining funksional savodxonligini xalqaro baholash dasturlari asosida rivojlantirish .....	88
<i>Shavqiddin Burxonov</i>	
Development of Students' Artistic Taste and Aesthetic Education as a Pedagogical Problem.....	91
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
O'smirlarda huquqiy madaniyatni shakllantirishda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning pedagogik imkoniyatlari...	95
<i>Umarov Qobiljon</i>	



Ta'lim va tarbiya tizimida falsafiy yondashuvning pedagogik asoslari .....	98
<b>Umurov Sharif Rajabovich</b>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z turkumlariga oid mashg'ulotlar ustida ishlash .....	102
<b>Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi</b>	
Методические основы развития критического мышления обучающихся при изучении информационных технологий в условиях использования искусственного интеллекта .....	106
<b>Панжиева Назокат Норматомовна</b>	
Динамика морфологической системы современного русского языка в условиях цифровизации .....	111
<b>Тураева Дилфуза Даминовна</b>	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri .....	116
<b>Abdug'aniyeva Saodat Shuhrat qizi</b>	
Blended Learning Pedagogy in University EFL Writing Courses: Effects on Linguistic Accuracy and Learner Autonomy .....	120
<b>Inomidinova Dildorxon Ikramovna</b>	
O'smirlik davrida psixologik rivojlanishning muhim jihatlari va uning determinantlari.....	125
<b>M. S. Usmonova</b>	
The Relationship Between Grammar Knowledge and Writing Proficiency in EFL Learners .....	130
<b>Tahirova Shaxribonu</b>	
Особенности интерпретации юридических терминов в медиатекстах.....	139
<b>Хамидова Нигора Тулкуновна</b>	
Sportchilarning ijtimoiy moslashuvda murabbiy shaxsining roli .....	142
<b>Akbarova Maloxatoyimposhsha Saidto'ra qizi</b>	
Raqamli asrda yoshlarning media savodxonligi: ingliz tili og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda vlog yuritishning o'rni.....	146
<b>Akramova Yulduz Farxadovna, To'rayeva Maftuna Ravshanovna</b>	
Naqshbandiya ta'limotida psixospiroital paradigmalarning mohiyati .....	151
<b>Ashurova Gulru</b>	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarining hamkorlikdagi o'quv faoliyatini monitoring qilish mexanizmlari.....	154
<b>Bekmuratov Qadirbergen Quwanishbaevich</b>	
Oliy ta'lim muassasasi talabalarining kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirish.....	158
<b>Hotamov Lochinbek Uktam o'g'li</b>	
Improving Speaking Skills Through Authentic Videos Abstract .....	162
<b>Imamaliyeva Gulnoza Ulug'bekovna</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi (pedagogik ritorika fani misolida).....	168
<b>Ismoilov Muhammadkarim Miraxmat o'g'li</b>	
Boshlang'ich ta'limda kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini rivojlantirishning texnologik asoslari (2-sinf rus tili darslari misolida) .....	170
<b>Jabborova Muslima Toxirovna</b>	
Pedagogik amaliyot jarayonida talabalarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning innovatsion mexanizmlari .....	175
<b>Karimova Barno Ergashevna</b>	
Raqamli ta'lim muhitida milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari .....	178
<b>Mamanazar Djumayev</b>	
Raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim jarayoniga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning pedagogik-didaktik asoslari .....	187
<b>Maxmudova Gulchiroy G'anisherovna</b>	
Regbi mashg'ulotlari jarayonida talabalarining tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishning differensial metodikasi .....	191
<b>Nematov Bahodirbek Baxtiyor o'g'li</b>	
Oila muhitida siblinglararo munosabatlarda psixologik manipulyatsiyaning namoyon bo'lish xususiyatlari...	195
<b>Nishanova Zulfizar Yashin qizi</b>	

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashning hozirgi holati hamda innovatsion ta'lim texnologiyalari va tpack yondashuvi asosida pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish .....	199
<i>Nozimabonu Tojiboyeva</i>	
Agressiv xulqning ijtimoiy-psixologik determinantlari.....	204
<i>O'ktamova Shohida Odilbek qizi</i>	
Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishning pedagogik afzalliklari va xavflari.....	209
<i>Oqil Ochilov Lutfullo o'g'li</i>	
Kichik tadbirkorlik subyektlarining hudud eksport salohiyatini oshirishga ta'sirining ekonometrik-statistik tadqiqi .....	214
<i>Boymatova Dildora Olim qizi, Toshaliyeva Saodat Toxirovna</i>	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga tovush yo'nalishini aniqlashtirish metodikasi.....	218
<i>Haydarov Islomjon Hatamjon o'g'li</i>	
Bolalar folklori asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati .....	222
<i>Jo'raboyeva Mushtariy Jamoldin qizi</i>	
O'zbekistonda maktab ta'limida o'quvchilarning kasbiy salohiyatini aniqlashda sun'iy intellektdan foydalanish .....	228
<i>Karimova Sarvinoz Hojiqurbonovna</i>	
Aqli zaif bolalarning so'zlashuv nutqiga qo'yiladigan talablar .....	233
<i>N. S. Mirbabayeva</i>	
Oliy ta'lim muassasasida ta'lim va tarbiya berish metodlari .....	237
<i>Kamalov Rustam Azizovich</i>	
Bo'lajak logopedlarni tayyorlashda pedagogik mahoratini rivojlantirish xususiyatlari.....	241
<i>Shamsiyeva Sevara Yusupovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani rivojlantirishda loyihaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish .....	244
<i>Tangirqulov Elmurod Aliyarovich</i>	
Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanish .....	248
<i>Toshtemirova Sarvinoz Obidovna</i>	
Shaxsning ijtimoiy-psixologik yo'naltirilganligi guruhviy jipslikni belgilovchi individual omil sifatida .....	251
<i>Turayev Nurmuhammad Alibek Fozil o'g'li</i>	
Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish (aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar misolida).....	254
<i>G'ofurova Umida O'tkirbek qizi</i>	
The Role of Artificial Intelligence in Creating Interactive Methods in English.....	258
<i>Urozboyeva Mavluda Shukurlo qizi</i>	
Bo'lajak muhandislarda ekologik madaniyatni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari .....	262
<i>Xalikova Xurshida Abdullayevna</i>	
Suv ekotizimlarida turlar sonining kamayishini eDNA metabarkoding orqali aniqlash va uning oziq-ovqat xavfsizligidagi ahamiyati.....	267
<i>Xalilova Nigora Ixtiyorovna, Izzatilloeva Umida Kamolovna</i>	
Asalarilar sonining kamayishi va global ekologik xavf.....	272
<i>Xalilova Nigora Ixtiyorovna, Sayfulloyeva Dilnura Samandarovna</i>	
Enhancing A2 Learners' English Speaking Skills Through Short Stories With Structured Question-and-Answer Activities.....	276
<i>Xudoyberdiyeva G. Sh.</i>	
Кризис интеллигента и поиск смысла жизни в русской и мировой прозе XX Века: сравнительный анализ романов "Обломов" (И. Гончаров) и "Великий гатсби" (Ф. С. Фицджеральд) ..	280
<i>Аманова А. А., Саттарова М.</i>	
Понятие профессиональной ориентации и ее педагогическая сущность .....	285
<i>Каримова Наргиза Абдугафуровна</i>	
Talabalarning sun'iy intellektli ta'limiy vositalarni loyihalash kompetentligini shakllantirishning pedagogik shartlari .....	289
<i>Toxirov Feruz Jamoliddinovich</i>	



Maktab ta'lim tizimida STEAM yondashuvini joriy etishda loyiha boshqaruvining roli va samaradorligi ..... 293 <a href="#">Avalboyeva Mavluda Abdumalikovna</a>	293
Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion mexanizmlari ..... 300 <a href="#">Xodjayeva Matlyuba Rustamovna</a>	300
Biologiya darslarida interaktiv metodlar orqali o'quvchilarning tanqidiy va kreativ fikrlashini rivojlantirish .... 304 <a href="#">Hayitov Abdurasul Eshdavatovich, Anvarjonova Odinaxon Xayrullo qizi, Rahimova Fazilat Akrom qizi</a>	304



# BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI HAMDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA TPACK YONDASHUVI ASOSIDA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARNI TAKOMILLASHTIRISH

Nozimabonu Tojiboyeva

Xalqaro NORDIK universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashning hozirgi holati tahlil qilinib, ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalari hamda TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge) yondashuvining o'rni yoritilgan. Tadqiqotda bo'lajak o'qituvchilarning texnologik, pedagogik va fan mazmuniga oid bilimlarini integratsiyalash zarurati asoslab berilgan. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarini zamonaviy ta'lim muhitida samarali faoliyat yuritishga tayyorlashga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar tahlil qilingan. Maqolada innovatsion ta'lim texnologiyalarini o'quv jarayoniga joriy etish, raqamli vositalardan samarali foydalanish hamda TPACK yondashuvi asosida kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirish, ta'lim sifati va samaradorligini yuksaltirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi.

**Kalit so'zlar:** bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi, innovatsion ta'lim texnologiyalari, TPACK, kasbiy kompetentlik, pedagogik shart-sharoitlar, raqamli ta'lim, pedagogik tayyorgarlik, ta'lim sifati.

**Abstract:** This article analyzes the current state of pre-service primary school teacher education and examines the role of innovative educational technologies and the TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge) framework in developing professional competence. The study substantiates the need for integrating technological, pedagogical, and content knowledge in the preparation of future teachers. Furthermore, it explores the pedagogical conditions that facilitate the effective preparation of primary education students for professional activities in a modern educational environment. The article discusses the theoretical and practical aspects of implementing innovative educational technologies in the learning process, the effective use of digital tools, and the improvement of professional training based on the TPACK framework. The findings provide a basis for developing methodological recommendations aimed at enhancing the professional competence of future primary school teachers and improving the quality and effectiveness of education.

**Key words:** pre-service primary school teacher, innovative educational technologies, TPACK, professional competence, pedagogical conditions, digital education, teacher training, educational quality.

**Аннотация:** В данной статье анализируется современное состояние подготовки будущих учителей начального образования, а также рассматривается роль инновационных образовательных технологий и подхода TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge) в развитии их профессиональной компетентности. Обосновывается необходимость интеграции технологических, педагогических и предметных знаний будущих педагогов. Кроме того, проанализированы педагогические условия, способствующие подготовке студентов направления начального образования к эффективной профессиональной деятельности в современной образовательной среде. В статье рассмотрены теоретические и практические аспекты внедрения инновационных образовательных технологий в учебный процесс, эффективного использования цифровых инструментов и совершенствования профессиональной подготовки на основе подхода TPACK. Результаты исследования позволяют разработать методические рекомендации, направленные на повышение профессиональной компетентности будущих учителей начального образования, а также на улучшение качества и эффективности образования.

**Ключевые слова:** будущий учитель начального образования, инновационные образовательные технологии, TPACK, профессиональная компетентность, педагогические условия, цифровое образование, педагогическая подготовка, качество образования.

## KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimini raqamlashtirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga keng joriy etish hamda ta'lim sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida faoliyat yuritadigan pedagoglarning kasbiy kompetentligini zamon talablari asosida rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy o'quvchi raqamli muhitda yashayotganligi sababli bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilaridan nafaqat chuqur fan va pedagogik bilimlarga, balki zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga samarali integratsiyalash kompetensiyasiga ham ega bo'lish talab etilmoqda.

Jahon ta'lim amaliyotida pedagoglarni tayyorlashning innovatsion modellari orasida TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge) yondashuvi alohida o'rin tutadi. Ushbu yondashuv o'qituvchining texnologik, pedagogik va fan mazmuniga oid bilimlarini o'zaro integratsiyalash orqali ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Biroq bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish va TPACK yondashuvini amaliyotga samarali tatbiq etish bilan bog'liq muammolar hanuzgacha mavjud. Mazkur holat pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

**Tadqiqotning obyekti** – bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni.

**Tadqiqotning predmeti** – innovatsion ta'lim texnologiyalari va TPACK yondashuvi asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar.

**Tadqiqotning maqsadi** – bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashning hozirgi holatini tahlil qilish hamda innovatsion ta'lim texnologiyalari va TPACK yondashuvi asosida pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

- bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashning nazariy va amaliy holatini tahlil qilish;
- innovatsion ta'lim texnologiyalari hamda TPACK yondashuvining pedagogik mohiyatini yoritish;
- bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;
- innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlik darajasini baholash mezonlarini ishlab chiqish;
- TPACK yondashuvi asosida pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish va TPACK yondashuvini qo'llash masalalari ko'plab xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Punya Mishra va Matthew J. Koehler tomonidan ishlab chiqilgan TPACK modeli o'qituvchilarning texnologik, pedagogik va fan mazmuniga oid bilimlarini integratsiyalashga asoslangan. Mualliflar texnologiyalarni samarali qo'llash uchun ushbu bilimlar o'zaro uyg'unlashgan holda rivojlantirilishi lozimligini ta'kidlaydilar. Shuningdek, Koehler va Mishra TPACK yondashuvining nazariy asoslarini yanada takomillashtirib, uni pedagog kadrlar tayyorlash tizimiga tatbiq etish mexanizmlarini ishlab chiqqanlar. Ularning fikricha, zamonaviy o'qituvchi texnologik vositalarni pedagogik maqsadlar bilan uyg'unlashtira olishi zarur.

Schmidt, Baran, Thompson, Mishra, Koehler va Shin bo'lajak o'qituvchilarning TPACK kompetensiyalarini baholash uchun maxsus so'rovnoma ishlab chiqib, uning validligi va ishonchiligi tajriba asosida isbotlaganlar. Mazkur so'rovnoma bugungi kunda eng keng qo'llaniladigan diagnostik vositalardan biri hisoblanadi. Harris, Mishra va Koehler o'z tadqiqotlarida TPACK modelini darslarni loyihalash jarayoniga integratsiyalash masalalarini yoritganlar. Ular texnologiyalarni tanlash pedagogik maqsad va o'quv mazmunidan kelib chiqishi kerakligini asoslab berganlar.

Graham (2011) TPACK bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilib, modelning nazariy asoslari va amaliy qo'llanilishi bo'yicha mavjud muammolarni aniqlagan. Tadqiqotda TPACKni rivojlantirish istiqbollari ham ko'rsatib berilgan. Koehler, Mishra va Cain TPACK modelining mohiyati, tarkibiy qismlari hamda ta'limdagi ahamiyatini batafsil yoritganlar. Mualliflar texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiyalash o'qituvchi kompetentligining ajralmas qismi ekanligini ta'kidlaydilar.

Chai, Koh va Tsai bo'lajak o'qituvchilarning TPACK kompetensiyalarini shakllantirish omillarini o'rganib, pedagogik tayyorgarlik jarayonida raqamli texnologiyalarni qo'llash muhim ahamiyatga ega ekanligini aniqlaganlar. Voogt, Fisser, Pareja Roblin, Tondeur va Van Braak TPACK bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni tizimli tahlil qilib, modelning o'qituvchilar kompetentligini rivojlantirishdagi samaradorligini asoslab berganlar.

Tondeur, Van Braak, Ertmer va Ottenbreit-Leftwich bo'lajak o'qituvchilarni texnologiyalarni ta'limga integratsiyalashga tayyorlash masalalarini tadqiq qilganlar. Ular amaliy mashg'ulotlar va refleksiv faoliyat TPACK



kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil ekanligini ko'rsatganlar. Koehler, Mishra va Kereluik XXI asr ko'nikmalari va raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda TPACK modelining imkoniyatlarini tahlil qilganlar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, texnologik-pedagogik tayyorgarlik zamonaviy o'qituvchi kasbiy kompetentligining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash va TPACK yondashuviga asoslangan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning muhim omili ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekiston pedagogika fanida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash, ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish hamda innovatsion ta'lim texnologiyalarini ta'lim jarayoniga integratsiyalash masalalari bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

N. Olimova bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasini tadqiq etgan. Muallif innovatsion texnologiyalar, raqamli vositalar va interfaol metodlarni qo'llash talabalarning kasbiy tayyorgarligi hamda metodik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishini asoslab bergan.

M. Quldasheva va N. A. Xayrullayeva tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijtimoiy-pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish mexanizmlari o'rganilgan. Tadqiqotchilar kommunikativ, refleksiv va kreativ kompetensiyalar pedagogning kasbiy muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillar ekanligini ta'kidlaydilar.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashning mavjud holatini o'rganish, innovatsion ta'lim texnologiyalarini o'quv jarayoniga integratsiyalash imkoniyatlarini aniqlash hamda TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge) yondashuvi asosida samarali pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirishga qaratildi. Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy, tizimli, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan va texnologik yondashuvlar tashkil etdi. Mazkur yondashuvlar bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini ko'p qirrali pedagogik jarayon sifatida o'rganish hamda uning tarkibiy komponentlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida nazariy, empirik va statistik metodlarning o'zaro uyg'unlashgan majmuasidan foydalanildi. Tadqiqotning dastlabki bosqichida muammo yuzasidan mavjud ilmiy-nazariy manbalar tahlil qilindi. Xususan, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish, innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash va TPACK yondashuviga bag'ishlangan mahalliy hamda xorijiy ilmiy adabiyotlar o'rganildi. Adabiyotlarni tahlil qilishda qiyosiy tahlil, kontent-tahlil, sintez, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi. Ushbu jarayonda ilmiy qarashlarning evolyutsiyasi, mualliflar yondashuvlari va mavjud tadqiqotlarning natijalari o'zaro taqqoslanib, tadqiqotning nazariy asoslari shakllantirildi.

Empirik tadqiqot bosqichida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlash maqsadida diagnostik vositalar majmuasi qo'llanildi. Jumladan, talabalarning texnologik, pedagogik va fan mazmuniga oid bilimlarini baholash uchun TPACK Survey so'rovnomasidan foydalanildi. Mazkur so'rovnoma respondentlarning zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalari, pedagogik faoliyatni tashkil etish malakalari hamda o'quv mazmunini texnologiyalar vositasida samarali yetkazish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qildi.

So'rovnoma natijalarini to'ldirish va aniqlashtirish maqsadida pedagogik vaziyatli topshiriqlar, kuzatish, suhbat va refleksiv tahlil metodlari ham qo'llanildi. Pedagogik vaziyatli topshiriqlar orqali talabalarning real ta'limiy muammolarni hal etish, innovatsion texnologiyalarni tanlash va ularni dars jarayoniga moslashtirish bo'yicha qaror qabul qilish ko'nikmalari o'rganildi. Kuzatish metodi yordamida talabalarning amaliy mashg'ulotlar va pedagogik amaliyot davridagi faoliyati tahlil qilindi. Suhbat va refleksiv fikr-mulohazalar esa ularning kasbiy rivojlanishga bo'lgan munosabati, innovatsion faoliyatga tayyorligi hamda o'z-o'zini baholash darajasini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot davomida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini tavsiflovchi bir qator mezonlar ishlab chiqildi. Tadqiqot davomida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga tayyorligini baholash maqsadida kognitiv, operatsion-faoliyatli, motivatsion-qadriyatli hamda refleksiv-baholash mezonlari ishlab chiqildi. Mazkur mezonlar talabalarning nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari, innovatsion faoliyatga bo'lgan munosabati va o'z kasbiy faoliyatini tahlil qilish qobiliyatini kompleks baholash imkonini berdi. Har bir mezon bo'yicha yuqori, o'rta va quyi darajalar belgilandi hamda respondentlarning tayyorgarlik holati aniqlashtirildi. Ushbu mezonlar texnologik kompetentlik, pedagogik kompetentlik, metodik tayyorgarlik, innovatsion faoliyatga tayyorlik va refleksiv qobiliyat kabi ko'rsatkichlarni qamrab oldi. Har bir mezon bo'yicha respondentlarning tayyorgarlik darajasi yuqori, o'rta va quyi darajalar kesimida baholandi. Bu esa tadqiqot natijalarini tizimli ravishda tahlil qilish va pedagogik shart-sharoitlarning samaradorligini aniqlash imkonini berdi. Olingan ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishda tavsifiy hamda

inferensial statistika usullaridan foydalanildi. Xususan, foiz ko'rsatkichlari, arifmetik o'rtacha qiymatlar, taqqoslash tahlili va natijalarni grafik hamda jadval ko'rinishida ifodalash usullari qo'llanildi. Statistik tahlil natijalari tadqiqot davomida aniqlangan pedagogik shart-sharoitlarning bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligiga ta'sirini baholashga xizmat qildi.

Tadqiqotning ishonchligini va obyektivligini ta'minlash maqsadida turli metodlardan olingan natijalar o'zaro solishtirildi hamda triangulyatsiya tamoyiliga amal qilindi. Mazkur yondashuv natijalarning haqqoniyligini oshirish, subyektiv omillar ta'sirini kamaytirish va tadqiqot xulosalarining ilmiy asoslanganligini ta'minlash imkonini berdi.

Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini kompleks o'rganish, innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash darajasini aniqlash hamda TPACK yondashuvi asosida pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqishga xizmat qildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlik darajasi hamda TPACK yondashuvi komponentlarining rivojlanish holati o'rganildi. Dastlabki diagnostika natijalari respondentlarda pedagogik va fan mazmuniga oid bilimlar yetarli darajada shakllangan bo'lsa-da, texnologik bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiyalash ko'nikmalari nisbatan sust rivojlanganligini ko'rsatdi. Tahlillar davomida talabalarning aksariyati raqamli vositalardan kundalik foydalanish tajribasiga ega ekanligi, biroq ulardan pedagogik maqsadlarda samarali foydalanish bo'yicha metodik tayyorgarlik darajasi yetarli emasligi aniqlandi. Xususan, dars maqsadiga mos texnologiyalarni tanlash, o'quv mazmunini raqamli vositalar yordamida taqdim etish hamda interaktiv o'quv muhitini yaratish bilan bog'liq faoliyatlarda ayrim qiyinchiliklar kuzatildi.

Innovatsion ta'lim texnologiyalariga asoslangan mashg'ulotlar, amaliy topshiriqlar, mikrodaralar, loyiha ishlari va refleksiv faoliyatlar tashkil etilgandan so'ng respondentlarning kasbiy tayyorgarligida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Talabalar tomonidan ishlab chiqilgan dars ishlanmalari tahlili shuni ko'rsatdiki, ular pedagogik maqsad, o'quv mazmuni va texnologik vositalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni avvalgi holatga nisbatan ancha puxta hisobga olib boshlaganlar. Kognitiv mezon bo'yicha olingan natijalar innovatsion ta'lim texnologiyalari va TPACK yondashuvi haqidagi nazariy bilimlarning mustahkamlanganligini ko'rsatdi. Respondentlar texnologik bilim, pedagogik bilim va mazmuniy bilim komponentlarining o'zaro aloqadorligini to'g'ri izohlash hamda ularni amaliy vaziyatlarda qo'llash imkoniyatlarini tushuntirib bera oldilar.

Operatsion-faoliyatli mezon bo'yicha olib borilgan tahlillar talabalarning amaliy ko'nikmalarida ijobiy siljish yuz berganligini ko'rsatdi. Ular darslarni loyihalashda interaktiv platformalar, multimedia vositalari, elektron ta'lim resurslari va raqamli baholash vositalaridan maqsadli foydalanishga erishdilar. Bu esa texnologik-pedagogik integratsiya darajasining oshganligini ko'rsatadi. Motivatsion-qadriyatli mezon natijalari bo'lajak o'qituvchilarda innovatsion faoliyatga nisbatan barqaror qiziqish shakllanganligini namoyon etdi. Talabalar zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirishni kasbiy rivojlanishning muhim omili sifatida baholadilar hamda ularni kelajakdagi pedagogik faoliyatida qo'llashga tayyor ekanliklarini bildirdilar.

Refleksiv-baholash mezoni bo'yicha olingan natijalar esa respondentlarning o'z faoliyatini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish strategiyalarini ishlab chiqish qobiliyatlari rivojlanganligini ko'rsatdi. Refleksiv topshiriqlar va fikr-mulohazalar tahlili talabalarda o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj va mas'uliyat hissi kuchayganligini tasdiqladi. Olingan natijalar innovatsion ta'lim texnologiyalaridan maqsadli foydalanish hamda TPACK yondashuviga asoslangan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari texnologik, pedagogik va mazmuniy bilimlarning integratsiyasiga asoslangan tayyorgarlik modeli zamonaviy boshlang'ich ta'lim tizimi uchun samarali yondashuv ekanligini tasdiqlaydi(1-jadval)

**1-jadval: Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlik darajasining dinamikasi**

TPACK komponentlari	Dastlabki holat (%)	Yakuniy holat (%)
TK (Technological Knowledge)	58,3	83,6
PK (Pedagogical Knowledge)	71,5	89,2
CK (Content Knowledge)	74,1	91,4
TPK	55,7	82,8
TCK	57,3	84,5
PCK	69,2	88,1
TPACK	53,8	85,7



Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tadqiqot davomida ishlab chiqilgan pedagogik shart-sharoitlar hamda innovatsion ta'lim texnologiyalariga asoslangan mashg'ulotlar bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, reflektiv-baholash mezon bo'yicha o'sish ko'rsatkichi (26,2 %) boshqa mezonlarga nisbatan yuqori bo'lib, bu talabalarning o'z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish ko'nikmalari rivojlanganligini ko'rsatadi. Operatsion-faoliyatli mezon bo'yicha qayd etilgan ijobiy o'zgarishlar esa respondentlarning innovatsion texnologiyalarni amaliyotda qo'llash tajribasi ortganligini tasdiqlaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda TPACK yondashuviga asoslangan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. O'tkazilgan nazariy va amaliy tahlillar asosida zamonaviy ta'lim muhitida faoliyat yuritadigan pedagoglarni tayyorlashda texnologik, pedagogik va fan mazmuniga oid bilimlarning o'zaro integratsiyasini ta'minlash zarurligi aniqlandi.

Tadqiqot davomida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlik darajasi kognitiv, operatsion-faoliyatli, motivatsion-qadriyatli hamda reflektiv-baholash mezonlari asosida o'rganildi. Olingan natijalar innovatsion texnologiyalarni o'quv jarayoniga maqsadli integratsiya qilish talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish hamda raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Shuningdek, TPACK yondashuvi asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bo'lajak o'qituvchilarning texnologik bilimlari, pedagogik mahorati va fan mazmuniga oid bilimlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni mustahkamlashga xizmat qilishi aniqlandi. Bu esa, o'z navbatida, talabalarning darslarni zamonaviy talablar asosida loyihalash, innovatsion metodlardan foydalanish va ta'lim jarayonida raqamli vositalarni samarali qo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash jarayoniga innovatsion ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish, TPACK yondashuvi asosida maxsus o'quv modullar ishlab chiqish, amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish hamda reflektiv faoliyatni tizimli tashkil etish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Umuman olganda, innovatsion ta'lim texnologiyalari va TPACK yondashuvi asosida yaratilgan pedagogik shart-sharoitlar bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish hamda ularni zamonaviy ta'lim tizimi talablariga mos ravishda tayyorlashning samarali omili sifatida namoyon bo'ldi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Chai, C. S., Koh, J. H. L., & Tsai, C. C. (2013). A review of technological pedagogical content knowledge. *Educational Technology & Society*, 16(2), 31–51.
2. Graham, C. R. (2011). Theoretical considerations for understanding technological pedagogical content knowledge (TPACK). *Computers & Education*, 57(3), 1953–1960. <https://doi.org/10.1016/j.compedu.2011.04.010>
3. Harris, J., Mishra, P., & Koehler, M. J. (2009). Teachers' technological pedagogical content knowledge and learning activity types: Curriculum-based technology integration reframed. *Journal of Research on Technology in Education*, 41(4), 393–416.
4. Koehler, M. J., & Mishra, P. (2009). What is technological pedagogical content knowledge? *Contemporary Issues in Technology and Teacher Education*, 9(1), 60–70.
5. Koehler, M. J., Mishra, P., & Cain, W. (2013). What is technological pedagogical content knowledge (TPACK)? *Journal of Education*, 193(3), 13–19. <https://doi.org/10.1177/002205741319300303>
6. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological pedagogical content knowledge: A framework for teacher knowledge. *Teachers College Record*, 108(6), 1017–1054. <https://doi.org/10.1111/j.1467-9620.2006.00684.x>
7. Schmidt, D. A., Baran, E., Thompson, A. D., Mishra, P., Koehler, M. J., & Shin, T. S. (2009). Technological pedagogical content knowledge (TPACK): The development and validation of an assessment instrument for preservice teachers. *Journal of Research on Technology in Education*, 42(2), 123–149. <https://doi.org/10.1080/15391523.2009.10782544>
8. Tondeur, J., Van Braak, J., Ertmer, P. A., & Ottenbreit-Leftwich, A. (2017). Understanding the relationship between teachers' pedagogical beliefs and technology use in education. *Educational Technology Research and Development*, 65(3), 555–575.
9. Voogt, J., Fisser, P., Pareja Roblin, N., Tondeur, J., & Van Braak, J. (2013). Technological pedagogical content knowledge: A review of the literature. *Journal of Computer Assisted Learning*, 29(2), 109–121. <https://doi.org/10.1111/j.1365-2729.2012.00487.x>
10. Alibayeva, U. (2023). Zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning pedagogik asoslari. *Pedagogik mahorat*, 4(2), 45–50.
11. Olimova, N. (2024). Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. *Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar*, 2(1), 78–84.
12. Quldasheva, M., & Xayrullayeva, N. A. (2023). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari. *Xalq ta'limi*, 5, 92–98.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(4)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.